Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda fond bozori orqali investitsiya faoliyatini moliyalashtirishni yo‘llarini takomillashtirish hamda jahon fond bozorlari jadal sur’atlarda kengayib borayotgan bir paytda fond bozori orqali investitsiyalarni jalb qilish, qimmatli qog‘ozlar bozorida zamonaviy moliyaviy vositalarni joriy qilish, investitsiya faoliyatini qimmatli qog‘ozlar hisobiga moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, ayrim moliyaviy vositalarning risklarni keltirib chiqarish darajasini minimallashtirish, investitsion banklarda qo‘llanilayotgan dastlabki xavf signali (early warning signals) va xavfsizlik to‘rlarini (safety nets) fond bozoriga moslashtirgan holda qo‘llashdagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: fond bozori, investitsiyalar, investitsiya faoliyati, qimmatli qog‘ozlar, investitsion banklar, fond birjasi, moliya bozorlari, Valyuta birjasi, elektron savdo tizimlari, aksiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari.

Abstract: this article will improve the ways of financing investment activities through the stock market in our country, as well as attract investments through the stock market at a time when world stock markets are rapidly expanding, introduce modern financial instruments in the securities market, improve the mechanism for financing investment activities for securities, minimize the risks associated with investments in securities. The level of risk associated with certain financial instruments, invesvision referred to the existing problems in the application of early warning signals and safety nets on the stock market, as well as to the author's approaches and proposals for their elimination, which are used in banks.

Key words: stock market, investments, investment activity, securities, investment banks, Stock exchange, financial markets, currency exchange, electronic trading systems, stocks, bonds, certificates of deposit.

Аннотация: данная статья позволит усовершенствовать способы финансирования инвестиционной деятельности через фондовый рынок в нашей стране, а также привлечь инвестиции через фондовый рынок в то время, когда мировые фондовые рынки стремительно расширяются, внедрить современные финансовые инструменты на рынке ценных бумаг, усовершенствовать механизм финансирования инвестиционной деятельности за ценные бумаги, минимизировать риски, связанные с инвестициями в ценные бумаги. уровень риска, связанный с определенными финансовыми инструментами, инвестиции сослалась на существующие проблемы в применении сигналов раннего предупреждения и систем безопасности (safety nets) на фондовом рынке, а также на авторские подходы и предложения по их устранению, которые используются в банках.

Ключевые слова: фондовый рынок, инвестиции, инвестиционная деятельность, ценные бумаги, инвестиционные банки, Фондовая биржа, финансовые рынки, валютная биржа, электронные торговые системы, акции, облигации, депозитные сертификаты.

## KIRISH

O‘zbekistonda bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari fond bozori va birja savdolarining asosiy ishtirokchisi bo‘lib, ular faoliyatining barqarorligi, o‘z navbatida, fond bozorining samaradorligini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etishi asoslangan.

Ta’kidlash joizki, xalqaro amaliyotda “fond bozori”ga nisbatan berilgan ilmiy ta’riflar borasida turlicha talqinlar mavjud bo‘lib, ular bir-biridan farqlanadi va yagona yondashuvni tashkil etmaydi. Shu sababli, fond va qimmatli qog‘ozlar bozorlari borasida iqtisodchi olimlar o‘rtasida bahsli masalalar hanuzgacha davom etayotgan bo‘lsa-da, iqtisodchi olimlarning bergan ilmiy ta’riflari va fikrlarining ayrimlarini tadqiq etishni lozim topdik. Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-may kuni qabul qilingan “2020–2025-yillarga

mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmonida, "qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning operatsiyalarini faollashtirish, tijorat banklari tomonidan korporativ obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirish hamda boshqa instrumentlar uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytirish, bir vaqtning o'zida nazoratni kuchaytirish, banklarning qimmatli qog'ozlarini xalqaro kapital bozoriga chiqarish bo'yicha huquqiy bazani yaratish" lozimligi ko'rsatib o'tildi [1].

Hozirda jahon fond bozorlari jadal sur'atlarda kengayib borayotgan bir paytda fond bozori orqali investitsiyalarni jalb qilishda, qimmatli qog'ozlar bozorida zamonaviy moliyaviy vositalarni ishlab chiqish, investitsion faoliyatni qimmatli qog'ozlar hisobiga moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari fond bozori va birja savdolarining asosiy ishtirokchisi bo'lib, ular faoliyatining barqarorligi, o'z navbatida, fond bozorining samaradorligini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etishi asoslangan. Hozirgi sharoitda iqtisodiyot nafaqat institutsional investorlar, balki xususiy investorlar faoliyati uchun ham qulay shart-sharoitlar yaratishni taqozo qiladi.

O'zbekiston fond bozorining kliring infratuzilmasi tarkibida ikkita tashkilot faoliyat olib boradi. Ular asosan, kliring markazlari faoliyat yuritadi. Ular kliringni fond bozorining ma'lum segmentida amalga oshiradilar. Mustaqil yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritadigan kliring markazlari mavjud emas. Odatda, bu funksiyani hisob-kitob depozitariysi, hisob palatasi yoki fond birjasining tizimli kompleksi bajaradi. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozori nostatsionarligi va risklar darajasi yuqoriligi hisobga olinadigan bo'lsa, savdo ishtirokchilari pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlarni oldindan zaxira qilib qo'yishi tizimi bugungi kunda obyektiv zarurat hisoblanadi. Biroq, fond bozori faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida yuqori foiz zaxira qilishni bosqichma-bosqich kamaytirib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'kidlash joizki, xalqaro amaliyotda "fond bozori"ga nisbatan berilgan ilmiy ta'riflar borasida turlicha talqinlar mavjud bo'lib, ular bir-biridan farqlanadi va yagona yondashuvni tashkil etmaydi. Shu sababli, fond va qimmatli qog'ozlar bozorlari borasida iqtisodchi olimlar o'rtasida bahsli masalalar hanuzgacha davom etayotgan bo'lsa-da, iqtisodchi olimlarning bergan ilmiy ta'riflari va fikrlarining ayrimlarini tadqiq etishni lozim topdik.

Qimmatli qog'ozlar borasida xorijlik mutaxassislardan biri professor Ya.M.Mirkin fond bozori va qimmatli qog'ozlar bozori tushunchalari bir-biriga mos keladi, deb hisoblaydi [2]. Shunga qaramasdan, ayrim olimlar prinsipial jihatdan ushbu tushunchalarni bir vaqtning o'zida qo'llashdan qochadilar. Odatda ular, ilmiy ishlarida qoida tariqasida yo "qimmatli qog'ozlar bozori" yoki "fond bozori" lug'atini qo'llaydilar. Amalda hech bir muallif nima uchun fond bozorida "qimmatli qog'ozlar bozori" lug'atini qo'llash mumkinligini bevosita tushuntirib bermagan.

Umuman, xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida fond bozori korporatsiyalarning qimmatli qog'ozlar bozori, degan fikr uchraydi. Bunda asosiy fikr sifatida Hukumat tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar aksiyalar emas, balki qarz majburiyatlari bo'lib, korporatsiyaning kapitalida aksiyadorning ulushini ifoda etadi [3].

O'z navbatida, qimmatli qog'ozlar tovarlar bozorida ham, pul bozorlarida ham muomalada bo'lib, pirovard natijada (tovar va fond bozorlarida) qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil etadi [4]. Shunday qilib, mazkur ta'rifdan kelib chiqadiki, fond bozori qimmatli qog'ozlar bozorining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu bozorda o'ziga xos maxsus tovar – moliyaviy qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi bitimlari amalga oshiriladi. Bizning nazarimizda, ushbu ta'rif fond bozori mazmunini batafsil ocha oladigan eng to'g'ri ta'riflardan biri hisoblanadi.

Ko'pchilik mutaxassislar va iqtisodchi olimlar ham mazkur fikrning tarafdori hisoblanadilar. Jumladan, ularning fikricha, qimmatli qog'ozlar bozori – fond bozoriga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, ular o'z ichiga hamma qimmatli qog'ozlarni olmasdan, balki faqat fond qimmatliklarini, ya'ni investitsion qimmatli qog'ozlarni o'z ichiga qamrab oladi [5]. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, fond bozori korporativ moliyalashtirishda foydalaniladigan aksiyalar va obligatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan qimmatli qog'ozlarni hamda investitsion fondlarning qimmatli qog'ozlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, rasman qimmatli qog'ozlar bo'lmasa-da, qimmatli qog'ozlarga fyucherslar va opsionlar hamda fond indekslari kabi hosilaviy moliyaviy instrumentlarni kiritishadi. Ammo shuni ta'kidlash joizki, fond bozori moliya bozorining tarkibiy elementi sifatida moliya bozorining boshqa segmentlari holatiga sezilarli darajada ta'sir etadi.

Odatda fond bozorini moliyaviy bozorning elementi sifatida qarashadi. Shu sababli, "moliya bozori" va "fond bozori" kategoriyalarining nisbatini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Odatda olimlar moliya bozori tarkibida quyidagi elementlarni: pul bozori va moliya kapitali bozorini alohida ajratib ko'rsatadilar. Moliya kapitali bozorida uzoq muddatli jamg'armalar aylanadi. Pul bozorida esa naqd instrumentlarga birlashib ketgan mablag'lar, ya'ni naqd pullar va qisqa muddatli ssudalar aylandi [6]. Ta'kidlash joizki, zamonaviy moliya tizimi kredit mexanizmiga asoslangan tarkibdan tashkil topgan. Oltindan boshqa barcha moliyaviy instrumentlar kimlarningdir majburiyati hisoblanadi. Ular mos holda tegishli bozorlarda aylanadi, xususan atsiyador jamiyatlarida, banklarda va davlatda muomalada bo'ladi.

Fond bozori infratuzilmasi bozor infratuzilmasining tarkibiy qismi hisoblanadi, shu bois bozor infratuzilmasining mohiyatini ta'riflashga yondashuvlardan fond bozorining infratuzilmasini ta'riflashda ham foydalanish mumkin. Quyida mavjud yondashuvlar doirasida fond bozori infratuzilmasiga berilgan ayrim ta'riflar keltiriladi.

V.Galanov va A.Basov tomonidan fond bozori infratuzilmasiga institutsional yondashuvga xos ta'rif berilgan. Ular bergan ta'rifga ko'ra, infratuzilma – bu "... fond bozoriga xizmat ko'rsatadigan va uning barcha qatnashchilariga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan jami tashkilotlar" [7].

Yu.Sizov qimmatli qog'ozlar bozorining infratuzilmasini "bozor ishlashini ta'minlovchi jami tizimlar" deb hisoblaydi. Fond infratuzilmasiga "fond bozorida risklarni boshqarish tizimi" sifatida yondashish maqsadga muvofiq xisoblanadi [8]. Bunday o'ziga xos talqin tarafdori V.Ovchinnikov tomonidan ham ilgari surilgan bo'lib, fond bozori infratuzilmasi tushunchasining "investorlarning manfaatlarini inqirozdan himoya qilish bo'yicha umumlashgan vosita" [9] deb ta'rif beradi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.V.Vaxabov o'z asarlarida investitsiya resurslarini samarali taqsimlanishini nazorat qilishning asosiy mexanizmi-bu fond birjasidir. Aynan rivojlangan qimmatli qog'ozlar bozori ushbu modelni muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur sharti hisoblanadi deb ta'kidlab o'tgan [10]. Demak, rivojlangan qimatli qog'ozlar bozori investitsiyalarni jalb etishni muhim vositasi bo'lishi mumkinligi ilgari suriladi. M.B.Xamidulin ilmiy tadqiqotlarida O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirish orqali investitsiyalarni jalb etish uchun barcha sharoitlar yetarli deb ta'kidlaydi[11]. Fond bozorida tashkilotlarning passiv ravishda ishtirok etishini bir nechta omillar bilan baholaydi: birinchidan, birlamchi bozorda strategik ahamiyatga ega tashkilotlarning jalb etilmasligi, ikkinchidan, aksiyadorlik tashkilotlari aksiyalari ulishida davlatning ulushi yuqoriligi, uchinchidan ikkilamchi bozorda aksiyalarning likvidli emasligi. Yuqoridagi omillarning to'liq yechimi topilmas ekan fond bozori orqali investitsiyalarni jalb etish pastligicha qolaveradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, moliya bozorining barcha segmentlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, birgalikda harakatda bo'ladi. Masalan, qimmatli qog'ozlar bozori ham pul bozoridan va moliyaviy kapital bozoridan iborat bo'lib, pul bozorida muomala muddati bir yilgacha bo'lgan qimmatli qog'ozlarni o'z ichiga oladi va moliyaviy kapital bozoridagi muomala muddati bir yildan ortiq bo'lgan qimmatli qog'ozlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, qimmatli qog'ozlar bozori bir vaqtning o'zida pul bozorining va kapital bozorining bir qismi hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy xujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda fond bozorining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil etib, uni quyidagi bosqichlarga ajratishimiz mumkin.

Birinchi bosqich 1991–1993-yillarni o'z ichiga olib, ushbu davrda O'zbekistonda fond bozorining dastlabki rasmiy institutlari paydo bo'ldi. "Toshkent" birjasining qoshida qimmatli qog'ozlar savdosi bilan shug'ullanadigan fond bo'limi tashkil etildi.

Ushbu bosqich qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirishi bo'yicha birinchi qonunning qabul qilinishi va qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari bo'lgan jismoniy shaxslarni attestatsiya qilishning boshlanishi bilan tavsiflanadi.

Ikkinchi bosqich 1994–1996-yillarni qamrab olib, bu davr keng miqyosli xususiylashtirishning boshlanishi bilan aksiyalar va veksellar bozorining keskin rivojlanishi bilan farqlanadi. Ushbu davrda milliy fond bozorini muvofiqlashtiruvchi "Aksioner jamiyatlari va aksionerlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" va "Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat yuritish mexanizmi" to'g'risidagi asosiy qonunlar qabul qilindi.

Mazkur bosqich depozitar tizimining va mulkdorlar sinfining shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Uchinchi bosqich 1997–2000-yillarni qamrab olib, Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bozorining shakllanishi va rivojlanish davri hisoblanadi.

Ushbu davrda maxsus infrastrukturalar shakllanishi va birjadan tashqari bozorning tuzilmasining tashkil topishi muhimdir. Shuningdek, veksel muomalasining tartibga solinishi, aksiyadorlik jamiyatlarda davlat ulushini tiklash va ko'paytirish bilan bog'liq ishlarning amalga oshirilishi ushbu davrga xosdir.

To'rtinchi bosqich 2001–2006-yillarni o'z ichiga olib, ushbu davr bir tomondan aksiyalarning uyushgan va uyushmagan bozorining rivojlanishining sekinlashishi va ikkinchi tomondan qimmatli qog'ozlar bozorining yangi segmentlari: depozit sertifikatlari, korporativ obligatsiyalar, Markaziy bank obligatsiyalari, Davlat qisqa muddatli g'aznachilik majburiyatnomalari muomalasining yo'lga qo'yilganligi bilan tavsiflanadi.

Respublika fond birjasining UCI indeksi 2023-yilda 82 foizga oshib, 703 ga yetdi. 2023-yilning ikkinchi yarim yilligida bir necha aksiya emitentlarining savdo narxlaridagi oʻzgarishlari birja kapitallashuviga taʼsir koʻrsatib, UCI indeksida tebranishlar kuzatildi. Bunda, 2023-yil yakuni boʻyicha togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash chiqaradigan sanoat sohasidagi emitentlarning aksiyalari narxlaridagi salbiy oʻzgarish birja kapitallashuvining kamayishiga olib keldi [12]. Shuningdek, bir necha banklarning oddiy va imtiyozli aksiyalari narxlari keskin oʻsishi yil soʻngida birja kapitallashuviga ijobiy taʼsir koʻrsatdi va UCI indeksini biroz muvozanatlashtirdi. Uzbekistan Composite Index (UCI) – Respublika fond birjasining indeksi boʻlib, birja kotirovkalar varagʻiga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy holatini aks ettiradi. (1-rasm).




1-rasm. 2023 yil davomida emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi, (trln soʻm).

Mamlakatimizda 2023-yil boʻyicha aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi biroz ogʻish bilan oʻsish tendensiyasini koʻrsatdi va shu davr boshidagi koʻrsatkichga nisbatan 83,22 foizga oʻsishni qayd etdi.

Ushbu davrda bozor kapitallashuvining maksimal darajasi – 170,87 trln. soʻm 2023-yil 3-noyabrda qayd etilgan. Bozor kapitallashuvining eng past qiymati 20-yanvarga toʻgʻri keldi, oʻshanda emitentlarning umumiy kapitallashuvi 89,80 trln. soʻmni tashkil qilgan.

Kapitallashuvning oʻsishiga bir qancha omillar taʼsir koʻrsatdi, bunda koʻrsatkichning 92,47 trln. soʻm miqdoridagi boshlangʻich qiymati koʻrib chiqilayotgan davr oxiriga kelib 144,02 trln. soʻmgacha oʻsgan. Shunday omillardan biri 2023-yil 20-fevraldan, IPO yakunlanganidan soʻng, "UzAuto Motors" AJ /UZMT/ oddiy aksiyalari bilan birja savdolarining boshlanishi boʻldi. Nominal qiymati 5 000,00 soʻmni tashkil etgan aksiyalarning savdo narxi oʻrtacha 68 000,00 soʻmni qayd etdi. Bozor kapitallashuvning oʻsishiga sabab boʻlgan navbatdagi sezilarli faktor, bu "Xalq banki" ATning /XKBK/ aksiyalari birja kotirovkalari varagʻiga kiritilganligidir.

Ushbu emitentning umumiy bozor kapitallashuvi 7,35 trln. soʻmdan ortiqni tashkil etadi. Shu bilan birga, ayrim emitent aksiyalari savdo narxining barqaror oʻsib borayotgani ham aksiya emitentlarining bozor kapitallashuvidagi ijobiy oʻzgarishlarga sabab boʻlgan.

Dunyoda davom etayotgan ziddiyatli geosiyosiy vaziyat, shuningdek rivojlangan mamlakatlar moliya tizimlarida yuzaga kelgan noaniqliklar sababli moliya bozorlaridagi tebranuvchanlikning ortishiga qaramasdan 2023-yilda jahon moliyaviy sharoitlar indeksida ijobiy tendensiya saqlanib qoldi. Shuningdek, qimmatli qogʻozlar bozori boʻyicha ijobiy oʻzgarishlar, shu jumladan ularning narxlarida kuzatilgan past oʻzgaruvchanlik darajasi global makromoliyaviy holatning yumshashiga taʼsir koʻrsatdi.

Rivojlangan davlatlarning suveren obligatsiyalarida kuzatilgan yuqori rentabellik darajasi xalqaro bozorda rivojlanayotgan davlatlar aktivlariga investitsiyalarni qisqarishiga sabab boʻldi. Bundan tashqari, 2023-yil davomida kuzatilgan yuqori foiz stavkalari kreditlarga boʻlgan talabni qisqartirdi. Shuningdek, qarz oluvchilarning maʼlum segmentlari uchun majburiyatlarni bajara olmaslik holatlari kuchayishda davom etib, banklarning kredit tavakkalchiligiga boʻlgan ishtiyoqini pasaytirdi. Yuqori foiz stavkalari muhitidagi moliyaviy sharoitlar taʼsirida zaifroq rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Yuqori inflyatsiyaga qarshi AQSH Federal zaxira tizimi asosiy foiz stavkasini oshirishining jahon kapital bozoriga salbiy taʼsiri 2023-yilda biroz yumshadi. 2023-yil soʻngida jahonda kuzatilgan moʻtadil iqtisodiy oʻsish hamda inflyatsiya koʻrsatkichlarining sekinlashishi investorlarning ishonchi birmuncha tiklanishiga sabab boʻldi.




2-rasm. Morgan Stanley Capital International (MSCI) indekslari, AQSH, dollari[1].

Jahon fond bozorlari dinamikasini ifodalovchi Morgan Stanley Capital International (MSCI) indekslari yaxshilandi. Global aksiyalar bozoridagi jahon va rivojlangan davlatlar bo'yicha MSCI indekslarida ijobiy o'zgarish qayd etildi. Xususan, 2023-yilda rivojlangan davlatlar bo'yicha MSCI indeksi 2022-yilga nisbatan 22 foizga o'sib, 2023-yil so'ngida 3 170 AQSH dollar atrofida shakllandi. Shuningdek, 2023-yilda jahon MSCI indeksi 17 foizga o'sdi. Rivojlanayotgan davlatlarning fond bozorlarida esa 2022-yilga nisbatan sezilarli ijobiy o'zgarish kuzatilmadi.

Morgan Stanley Capital International indekslari 23 ta rivojlangan hamda 24 ta bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlardagi yirik korxonalarning aksiyalari narxlarini qamrab olgan jahon fond bozoridagi vaziyatni aks ettiruvchi indekslar hisoblanadi. Ushbu indekslar qiymatining ortishi jahon qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyalar narxida ijobiy o'zgarish kuzatilganligini anglatadi.

Umuman olganda, mamlakatimizda so'nggi yillardagi makroiqtisodiy barqarorlik fond bozorining rivojlantirishga faqat ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun ham fond bozoriga investitsiyalarni jalb etishning ochiq mexanizmlarini ishlab chiqish, ayrim davlatlar tajribalarini fond bozori axboroti ochiqligini ta'minlash, aholining bo'sh mablag'larini jalb etish va chet el kapitalini milliy fond bozoriga jalb etishni faollashtirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Omonatlarni investitsiyaga aylantirish uchun fond bozorining mexanizmi samarali ishlashi kerak bo'ladi. Fond bozori mexanizmining tranformatsiyalash xususiyati ko'p qirrali va bozorning turli jihatlarida: tuzilmaviy, funksional, genezis jihatlarida namoyon bo'ladi. Ushbu jihatlarning har birida transformatsiya muayyan tashkillashtirish va tartibga solish, harakat va faoliyat yuritish, o'sish va rivojlanish munosabatlarini o'z ichiga oladi.

Fond bozorining mexanizmlaridan foydalangan holda, pul resurslariga muhtoj bo'lgan firmalar investitsiyalarni jalb qilish uchun qimmatli qog'ozlarni (masalan, aksiya yoki obligatsiyalarni) emissiya qiladilar va ularni birlamchi bozorda joylashtiradilar. Shu yerda ular birinchi marta sotiladi-sotib olinadi. Qimmatli qog'ozlar emitenti bo'lgan firma va sotib olgan xaridor investor bunda fond bozorining subyektlariga, qimmatli qog'ozlar esa oldi-sotdi obyektiga aylanadi. Qimmatli qog'ozlar ommaviy emissiya qilinganda, aksiyadorlarning huquqlarini tashkillashtirilgan tarzda hisoblash, saqlash (depozitar faoliyat), hisobga olish (registratorlar) va h.k. tizimlarga zarurat tug'iladi. Faoliyat yuritish mexanizmiga tizimning yangi qatnashchilari va elementlari jalb qilinadi. Shu tariqa ularning miqdor va sifat jihatdan rivojlanishi ta'minlanadi.

Fond bozorlarining modellarini qiyosiy tahlil qilish dunyo tajribasidan O'zbekiston fond bozorini tashkil etishda foydalanish nuqtai nazaridan juda muhim. Masalan, infratuzilmani yaratishda model infratuzilmaning

1 Муаллиф ишланмаси

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

tuzilmasiga ham ta'sir qilishi mumkinligini inobatga olish zarur. Xususan, fond bozorining modeliga qarab emitentlarga xizmat ko'rsatadigan (qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga olish, transferti, ular bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish va h.k.) depozitariy va kliring tarmog'i bank yoki bankdan tashqari xususiyatga ega bo'ladi.

Fond bozoriga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq texnologiyalarning bugungi kundagi rivojlanish darajasi bozorga xizmat ko'rsatuvchi faoliyat sohalarini birmuncha kengaytirishni talab etadi. Ular qatoriga sug'urta, fond bozorini innovatsion va texnik ta'minlash bo'yicha faoliyatni kiritish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**


1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 май куни қабул қилинган “2020–2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги ПФ-5992-сонли Фармони. https://lex.uz
2. Миркин Я.М., Институциональные и региональные измерение рынка. Рынок ценных бумаг, 2001, №5, С.100.
3. Тьюлз Дж., Брэдли Э.С., Тьюлз Т. Фондовый рынок. М: ИНФРА-М, 1999, С.16.
4. Дозоров А., Чем торгуют на фондовом рынке, сайт компании “БКС” www.bcs.ru
5. Бакунин М., Соотношение фондового рынка и рынка ценных бумаг. М.: Хозяйство и право.-1996, №5,С.111-112.
6. Пургин А.Н., Фондовый рынок в системе макроэкономической стабилизации. С.33. –2016, №3, С.102-109.
7. Рынок ценных бумаг: Учебник/ под ред. В.А. Галанова, А.И.Басова.-М.:ФиСт. –1996.-С.100.
8. Сизов Ю.С. Формирование системы государственного регулирования рынка ценных бумаг в России. Московский опыт. М.: Планета 2000. –I999. –С.142.
9. Овчинников В.В. Путь к совершенству мирового рынка ценных бумаг: Globalcustody. –М. –1998. –С.488.; Базовый курс по рынку ценных бумаг. - М.: Финансовый издательский дом “Деловой экспресс”, – 1998. –С.37.
10. Вахабов А.В. ва бошқалар. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. –Т.: “Молия” 2010. –328 б. (152б.).
11. Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления. Иқт.фан.док. илмий даражаси олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Тошкент,2008. –37 б.
12. https://www.uzse.uz

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 8**

© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.